



Improving the functional literacy of future primary education teachers as a pedagogical challenge

Makhfuza GOFUROVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2023
Received in revised form
15 September 2023
Accepted 15 October 2023
Available online
25 November 2023

Keywords:

functional literacy,
primary education,
pedagogical issues,
teacher training,
educational technologies,
professional competence,
reflection,
portfolio technology,
metacognitive activity,
practice-oriented education,
improving education quality,
innovative approach,
problem-based learning,
assessment criteria,
critical thinking,
educational content,
didactic tools,
new pedagogical
technologies.

ABSTRACT

This article scientifically analyzes the formation of functional literacy in primary education as a crucial pedagogical issue. It substantiates the need to implement modern educational technologies, develop professional competence, and strengthen reflective approaches in teacher training processes. The article reveals mechanisms for guiding students towards independent thinking and critical analysis through portfolio technology, metacognitive activities, and practice-oriented learning. Innovative approaches, problem-based teaching methods, and clear assessment criteria are recognized as key factors in enhancing educational quality. Furthermore, it outlines ways to effectively implement new pedagogical technologies by modernizing educational content and didactic tools. The article also includes methodological recommendations for developing functional literacy in the professional preparation of primary school teachers.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5-pp118-123>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning funksional savodxonligini oshirish pedagogik muammo sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

funksional savodxonlik,
boshlang'ich ta'lim,
pedagogik muammo,

Mazkur maqolada funksional savodxonlikni boshlang'ich ta'lim jarayonida shakllantirish muhim pedagogik muammo sifatida ilmiy asosda tahlil qilinadi. O'qituvchilarni tayyorlash

¹ PhD, Fergana State University. E-mail: mahfuza.gafurova73@gmail.com

o'qituvchilar tayyorlash,
ta'lim texnologiyalari,
kasbiy kompetensiya,
refleksiya,
portfolio texnologiyasi,
metakognitiv faoliyat,
amaliyotga yo'naltirilgan
ta'lim,
ta'lim sifatini oshirish,
innovatsion yondashuv,
muammoli o'qitish,
baholash mezonlari,
tanqidiy fikrlash,
ta'lim mazmuni,
didaktik vositalar,
yangi pedagogik
texnologiyalar.

jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish va reflektiv yondashuvni kuchaytirish zarurligi asoslab beriladi. Portfolio texnologiyasi, metakognitiv faoliyat va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va tanqidiy tahlilga yo'naltirish mexanizmlari ochib beriladi. Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar, muammoli o'qitish metodlari va aniq baholash mezonlari asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, ta'lim mazmuni va didaktik vositalarning zamonaviylashtirilishi orqali yangi pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professional tayyorgarligida funksional savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Повышение функциональной грамотности будущих учителей начального образования как педагогическая проблема

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

функциональная грамотность, начальное образование, педагогическая проблема, подготовка учителей, образовательные технологии, профессиональная компетентность, рефлексия, портфолио-технология, метакогнитивная активность, практико-ориентированное обучение, повышение качества образования, инновационный подход, проблемное обучение, критерии оценки, критическое мышление, содержание образования, дидактические средства, новые педагогические технологии.

В статье функциональная грамотность рассматривается как важная педагогическая проблема в контексте начального образования. Обоснована необходимость внедрения современных образовательных технологий в подготовке учителей, развития их профессиональной компетентности и усиления рефлексивного подхода. Раскрыты механизмы формирования критического мышления и самостоятельности учащихся посредством портфолио-технологий, развития метакогнитивной активности и практико-ориентированного обучения. Отмечено, что инновационные подходы, проблемное обучение и чёткие критерии оценки являются ключевыми факторами повышения качества образования. Также представлены пути эффективного внедрения новых педагогических технологий через модернизацию содержания образования и дидактических средств. Статья включает методические рекомендации по развитию функциональной грамотности в профессиональной подготовке будущих учителей начальных классов.

KIRISH

Hozirgi davrda globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga, ayniqsa ta'lim tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy talablarga javob beruvchi o'qituvchilarni tayyorlash masalasi pedagogika

fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat yurituvchi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining **funksional savodxonligi** darajasi ta'lim sifati va natijaviyligining asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda [1]. Funksional savodxonlik tushunchasi dastlab UNESCO va OECD hujjatlarida 20-asrning oxirlaridan boshlab keng yoritila boshlagan. Bu atama insonning real hayotiy vaziyatlarda o'z bilim va ko'nikmalarini samarali qo'llay olish layoqatini anglatadi [6]. Shuningdek, bu savodxonlik shakli an'anaviy bilim yodlashdan ko'ra, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, axborotni qayta ishlash va hayotiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslanadi [8].

O'zbekiston ta'lim tizimida ham bu masala bosqichma-bosqich dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Milliy o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlarida funksional yondashuv unsurlarining paydo bo'layotgani bu jarayonning boshlanganidan dalolat beradi. Ammo bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda funksional savodxonlikni shakllantirish bo'yicha **metodik yondashuvlar, baholash vositalari va zamonaviy texnologiyalar tizimlashtirilmagan**. Ko'plab holatlarda o'quv jarayonida nazariy bilimlar yetarli darajada mustahkamlanadi, biroq ularni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan kompetensiyalar yetishmaydi [11, 12].

Ushbu maqolada funksional savodxonlik tushunchasining mazmuni, u bilan bog'liq xalqaro yondashuvlar, hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ushbu muammoni hal etish yo'llari chuqur pedagogik-metodik tahlil asosida o'rganiladi. Maqola ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi reflektiv o'qitish, metakognitiv yondashuv, portfolioga asoslangan baholash kabi zamonaviy metodik vositalarning o'rnini hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga ta'sirini ochib berishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o'rganilib, u chuqur **nazariy-metodik asosda** yondashilgan holda tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli va komparativ pedagogik tahlilga tayangan bo'lib, unda **analitik, tizimlashtiruvchi, konseptual va diagnostik** yondashuvlar uyg'unlashtirildi [3]. Tadqiqotda birinchi navbatda funksional savodxonlik tushunchasining **epistemologik asoslari**, pedagogik kategoriyalar tizimidagi o'rni, hamda u bilan bog'liq metodik kompetensiyalarning mazmuni aniqlashtirildi [9]. Bu bosqichda ilg'or xorijiy nazariyalar, jumladan, **Bloom taksonomiyasi, Vigotskiyning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi**, hamda **Shulmanning pedagogik bilim kategoriyalari** tahlil qilindi. Ular asosida funksional savodxonlikni shakllantiruvchi asosiy kognitiv-kommunikativ omillar ajratib olindi. Keyingi bosqichda ta'lim texnologiyalari, reflektiv va metakognitiv yondashuvlar, portfolioga asoslangan baholash tizimlari bo'yicha mavjud ilmiy-nazariy modellar kontent-analiz qilindi. Bu jarayonda Sadler tomonidan taklif etilgan formativ baholash modeli [7], Black & Wiliamning o'quvchiga yo'naltirilgan baholash yondashuvi [2], hamda Tan va Chua ilgari surgan funksional kompetensiyaga asoslangan dars shakli tahlil qilindi [10]. Shuningdek, **Manchester, Finlandiya, Singapur va Avstraliya** kabi ilg'or ta'lim tizimlaridagi funksional savodxonlikni rivojlantirishga doir davlat strategiyalari va o'quv metodikalari o'rganilib, **komparativ pedagogik yondashuv** asosida tahlil qilindi [8]. Har bir mamlakatda o'qituvchi tayyorlashda qaysi metodik vositalar, kompetensiyalar va baholash mezonlari ustuvor ekani aniqlashtirildi. Tadqiqotning metodik asosini **integrativ yondashuv** tashkil etdi. Ya'ni, zamonaviy o'qituvchi kompetensiyasining

asosiy komponentlari – **kognitiv faoliyat, kommunikativ savodxonlik, refleksiya, tanqidiy tahlil va axborotdan foydalana olish** qobiliyatlari o‘zaro bog‘langan holda qaraldi. Ushbu komponentlar o‘rtasidagi ichki integratsiyani aniqlash uchun tizimli-analitik va g‘oyaviy-modeliy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalarning metodik asoslanganligini ta‘minlash maqsadida tadqiqotda ilgari surilgan nazariy pozitsiyalar xalqaro miqyosda e‘tirof etilgan tadqiqotlar bilan solishtirilib, ilmiy asosda sintez qilindi. Natijalarning ishonchliligi esa ko‘plab ilmiy maqola va dissertatsiyalar tahliliga asoslangan holda mustahkamlandi [3].

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining funksional savodxonligini shakllantirishda qo‘llanilayotgan metodlar, ta‘lim texnologiyalari va baholash tizimlarining samaradorlik darajasini aniqlashga qaratilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning funksional savodxonlik darajasi ularning tanqidiy fikrlash, matn bilan ishlash, muloqot yuritish, axborotni qayta tuzish, hayotiy muammolarni hal qilish kabi kompetensiyalari orqali namoyon bo‘lmoqda. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirishda eng samarali vosita sifatida portfolio texnologiyasi, reflektiv o‘qitish va metakognitiv yondashuvlar ajralib turdi. Tadqiqotda o‘rganilgan ilmiy-metodik materiallar asosida shunday xulosa qilindi: agar o‘qituvchilar tayyorlash jarayonida muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, amaliyotga yo‘naltirilgan faol metodlar, hamda individual baholash tizimlari joriy etilsa, bu o‘quvchilarning real hayotiy sharoitda qaror qabul qilish, tahlil qilish va muloqot qilish qobiliyatini sezilarli oshiradi. Ayniqsa, zamonaviy dars jarayonida “mini-loyiha”, “portfoliolar tahlili”, “metakognitiv fikrlash kundaliklari” kabi amaliy vositalar o‘zini oqladi. Xalqaro tajribalar bilan taqqoslash natijasida quyidagi kuzatishlar qayd etildi:

- **Finlandiya ta‘lim tizimida** o‘qituvchilarning avtonom reflektiv yondashuvlari ularning funksional savodxonligini kuchaytirishga xizmat qilgan [8].

- **Singapur modelida** esa 21-asr ko‘nikmalari asosida tanqidiy, tizimli va kreativ fikrlash metodlariga urg‘u berilgan [10].

- **Avstraliyada** funkisonal savodxonlik davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralib, baholash mezonlari ham aynan hayotiy kompetensiyalarga yo‘naltirilgan [5].

Milliy ta‘lim tizimi kontekstida esa hali bu komponentlar tizimli tarzda joriy qilinmagan, ko‘plab metodlar singari portfolioga asoslangan yondashuvlar eksperimental bosqichdadir. Shu boisdan, ushbu yondashuvlarni dars jarayoniga tizimli kiritish zarurati mavjud. Tadqiqotda aniqlanishicha, funksional savodxonlikni shakllantirish jarayonida quyidagi pedagogik shart-sharoitlar yetakchi omil bo‘lib xizmat qiladi:

1. O‘quv topshiriqlarning real hayotiy kontekstga ega bo‘lishi;
2. Talabani reflektiv fikr yuritishiga imkon beruvchi o‘qitish metodlari;
3. Formativ baholash tizimi orqali o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyati;
4. Ta‘limning kompetensiyaga yo‘naltirilgan dizayni.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari va xalqaro taqqoslovchi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish o‘zining murakkab pedagogik tabiatiga ega bo‘lib, bu kompetensiyani shakllantirish uchun alohida metodik va tashkiliy yondashuvlar zarur. Dastlab, funksional savodxonlik nafaqat o‘qish, yozish, hisoblash ko‘nikmalarini, balki **axborotni tanqidiy tahlil qilish, muammoni aniqlab, hal eta olish, ijtimoiy-kommunikativ muhitda samarali**

ishtirok etish kompetensiyalarini qamrab oladi [1]. Demak, bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'qituvchi tayyorlash jarayoni yangicha mazmunga ega bo'lishi lozim.

Finlandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining **avtonom pedagogik fikrlashi, reflektiv o'zgarishga tayyorligi va kasbiy yangilanishga ochiqqligi** asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi. Bu mamlakatda o'qituvchilar oliy magistr darajasida tayyorlanadi va ular mustaqil ilmiy izlanish olib borishga ham majburdir [8].

Milliy ta'lim tizimida esa bu komponentlar hali to'laqonli integratsiyalashmagan.

Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining funksional savodxonligini oshirish uchun **ilmiy-metodik qo'llanmalar, diagnostik vositalar, o'qituvchi portfeli strukturalari** ishlab chiqilishi zarur. Bular zamonaviy ta'lim strategiyasining zaruriy komponentlariga aylanmog'i lozim.

XULOSA

Tadqiqot natijalari va tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor va strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining funksional savodxonligi nafaqat ularning professional salohiyatining ko'rsatkichi, balki butun ta'lim tizimining sifatli ishlash mezonidir. Shu bois, ushbu yo'nalishda ilmiy-metodik tadqiqotlarni chuqurlashtirish, innovatsion texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va ularni tizimli joriy etish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alexander, R. (2012). *Improving oracy and classroom talk in English schools: Achievements and challenges*. University of Cambridge.
2. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7–74. <https://doi.org/10.1080/0969595980050102>
3. Creswell, J. W. (2014). *Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches* (4th ed.). SAGE Publications.
4. Merriam, S. B. (2009). *Qualitative research: A guide to design and implementation*. Jossey-Bass.
5. MCEETYA. (2008). *Melbourne Declaration on Educational Goals for Young Australians*. Ministerial Council on Education, Employment, Training and Youth Affairs. https://www.curriculum.edu.au/verve/_*-resources/National_Declaration_on_the_Educational_Goals_for_Young_Australians.pdf
6. OECD. (2019). *Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030*. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/education/2030-project/>
7. Sadler, D. R. (1989). Formative assessment and the design of instructional systems. *Instructional Science*, 18(2), 119–144. <https://doi.org/10.1007/-BF00117714>
8. Sahlberg, P. (2015). *Finnish lessons 2.0: What can the world learn from educational change in Finland?* Teachers College Press.
9. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. *Harvard Educational Review*, 57(1), 1–22. <https://doi.org/10.17763/-haer.57.1.j463w79r56455411>

10. Tan, O. S., Chua, P. M. H., & Kang, T. W. (2017). *Thinking schools, learning nation: Contemporary issues and practices*. Prentice Hall.
11. Abdulayev, M. X. (2021). Funktsional savodxonlik – pedagogik kategoriya sifatida. *Pedagogik ta'lim va fan*, (6), 37–40.
12. Qodirov, Z. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funktsional savodxonlikni rivojlantirish yo'llari. *Ta'lim va taraqqiyot*, 2(1), 56–63.
13. G'afforov, I. (2022). Reflektiv yondashuv orqali pedagogik malaka shakllantirish. *Pedagogika va psixologiya muammolari*, 3(1), 22–27.
14. UNESCO. (2018). *Global competence for sustainable development: Preparing learners for the challenges of the 21st century*. UNESCO Publishing. <https://unesdoc.unesco.org/>